

**NOYOB ISTE'DOD SOHIBI, BUYUK IJODKOR - ALEKSANDR
FAYNBERG**

Rashidova Ruxshonaxon Rustamjon qizi

rashidovaruhshona81@gmail.com

Ózbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyot fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur shoir va ijodkor Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi batafsil tahlil qilinadi. Uning adabiyotga qo'shgan hissasi, she'riyatidagi asosiy mavzular va badiiy uslubi haqida fikr yuritiladi. Faynberg she'riyatining falsafiy mazmuni, lirizm va poetik uslublari, shuningdek, uning ijodiy merosi ham tahlil qilinadi. Maqolada shoirning ayrim she'rlari ham keltirilib, ularning tahlili beriladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, adabiyot, she'riyat, falsafiy lirika, badiiy uslub, ijodiy meros.

KIRISH

O'zbek adabiy muhitida ko'plab shoir va ijodkorlar o'zlarining ijodi bilan alohida o'rin egallagan. Ular orasida Aleksandr Faynberg o'zining o'ziga xos adabiy uslubi, poetik mahorati va falsafiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari inson ruhiy olami, hayot va taqdir, tabiat va shahar uyg'unligi, sevgi va ayriliq kabi mavzularni o'zida mujassam etgan. Ushbu maqolada shoirning hayoti, ijodi va she'riyati batafsil tahlil qilinadi.

ALEKSANDR FAYNBERGNING HAYOTI VA IJODIY FAOLİYATI

Aleksandr Arkadyevich 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Ota-onasi tug'ilishidan ikki yil avval Novosibirskdan ko'chib kelgan. Yozuvchining otasi Arkadiy Lvovich Faynberg (1891–1971), asli Gatchinalik, texnologiya institutni tamomlagan va spirt zavodida bosh muhandis bo'lib ishlagan. Onasi Anastasiya Aleksandrovna (1904–?), Moskvada tug'ilgan, xuddi spirt zavodida mashinist bo'lib ishlagan. Arkadiy yetti yillik maktabni tugatgach, Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirgan. Kollejni tamomlagach, Tojikistonda harbiy xizmatni o'tagan. Keyin 1965-yilda Toshkent universitetini tugatib, filologiya fakultetining jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida tahsil olgan va talabalar gazetasida ishlagan. 1961-yilda Inna Glebovna Koval bilan turmush qurgan[1]. Aleksandr Faynbergning hayoti ijod bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'zining adabiy faoliyatini yoshligidan boshlagan. U o'z ijodida turli janr va mavzularga murojaat qilgan bo'lsa-da, ayniqsa, she'riyat sohasida o'zining betakror uslubi bilan tanilgan. Uning hayoti davomida yozgan she'rlari O'zbekiston adabiy muhitida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'z o'quvchilarini falsafiy fikrlashga undaydi.

FAYNBERGNING SHE'RIYATIDAGI ASOSIY MAVZULAR

Aleksandr Faynberg she'riyatida turli mavzular aks etgan bo'lsa-da, uning ijodining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir: Hayot va inson taqdiri Faynberg inson taqdirini, hayotning o'tkinchiligi va uning sirli tomonlarini o'ziga xos falsafiy ohangda yoritgan. U hayotning murakkabliklarini tasvirlab, inson qalbining chuqur kechinmalarini poetik obrazlar orqali yetkazgan[2].

She'rdan parcha:

«Bu yo'llar qachon tugaydi?

Kim biladi – oldin nima bor?

Hayot sirli bir kitob,

Har bitta sahifa – yangi savol...»

Tabiat va shahar uyg'unligi Uning she'rlarida tabiat va shahar hayoti o'rtasidagi qarama-qarshilik aniq seziladi. Shoir shahar muhitidagi yolg'izlikni tabiatning erkinligi bilan taqqoslaydi.

She'rdan parcha:

«Shahar chiroqlari yondi,

Yana qorong'u yuragim,

Shamollar esib o'tdi,

Lekin o'zgarmadi kunlarim...»

Sevgi va insoniy munosabatlar: Shoir sevgi mavzusini ham alohida ohangda kuylagan. Uning sevgi haqidagi she'rlari samimiylilik va chuqur his-tuyg'ular bilan yo'g'rilgan[3].

She'rdan parcha:

«Sen menga kel – kuzning yog'dusi,

Sen menga kel – bahor nafasi,

Sensiz tun – muzdek sukunat,

Sensiz tong – yolg'izlik fasli...»

ADABIY USLUB VA BADIY MAHORATI

Faynbergning she'riyati uslubiy jihatdan boy va turli badiiy vositalar bilan to'yingan. Uning asarlarida quyidagi jihatlar alohida ajralib turadi: Metaforalar va ramzlar: Shoir o'z fikrlarini chuqur ma'no kasb etuvchi ramzlar va metaforalar orqali yetkazgan. U hayotni kitobga, inson qalbini esa cheksiz ummonga qiyoslagan. Hayot bilan hamnafas tarzda har bitta mayda detallarda go'zallik ko'ra olgan shoir o'z kitobxonlarini aynan shu xususiyati bilan o'ziga rom etdi. Mayda detallar haqida gap ketar ekan, uning "Varaq" she'ri gapimizning yaqqol isboti hisoblanadi: Yulduzlarni asraydi falak, Teran dengiz asrar durlarni. Daftariydan yirtilgan varaq, Asragin men yozgan she'rlarni. Bu to'rtlikning lingvistik tahliliga to'xtalar ekanmiz, she'rning birinchi bandida jonlantirish san'atining guvohi bo'lamiz, ya'ni falakning yulduzlarni, teran dengizning o'z bag'ridagi qimmatbaho durlarini asrashini eslatib,

daftaridan yirtilgan she'rlari yozilgan varaqqa qarab, unga o'z ijod mahsulini asrashini so'raydi. Bu yerda nafaqat jonlantirish san'ati, balki yashirin tarzda kelgan o'xshatish san'atini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor she'rlarini tahlil qilishda davom etar ekanmiz uning keying to'rtligi:

She'r nafaqat o'qimoq, uqmoq,
 She'r yurakda yangragan tovush:
 Qutqargandek taygada so'qmoq,
 Tebrangandek ko'llarda qamish
 Bu to'rtlikning lingvistil

Musiqiylik va ritm: Uning she'rlari ohangdorligi va ichki musiqiyliigi bilan ajralib turadi. Bu esa uning she'rlarini yanada ta'sirchan qiladi. Qisqalik va chuqurlik: Shoir oz so'z bilan katta ma'no bera olgan. Bu esa uning ijodini boshqa shoirlardan ajratib turuvchi asosiy jihatlardan biridir[4].

Aleksandr Faynbergning O'zbek adabiyotiga qo'shgan xissasi.

Faynbergning ijodi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning she'riyati nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Uning asarlari yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai bo'lib, ularning adabiy tafakkurini boyitmoqda. Uning adabiyotga qo'shgan hissasi quyidagilardan iborat: Zamonaviy she'riyatga falsafiy yondashuv olib kirgan;

O'zbek va rus adabiyotlari o'rtasida bog'liqlik yaratgan; Yosh ijodkorlar uchun namunaviy shoir sifatida qadrlangan[5].

XULOSA

Aleksandr Faynberg o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning she'riyati inson qalbining eng nozik tuyg'ularini aks ettirgan. Uning adabiy merosi nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham qadrlanadi. Uning she'rlari falsafiy chuqurligi, lirizmi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Faynbergning ijodi bugungi yosh ijodkorlar uchun katta ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning she'rlari o'quvchini o'ylashga, his qilishga va hayotning ma'nosi haqida mulohaza yuritishga undaydi[6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia: Aleksandr Faynberg —
https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
2. Meliqo'ziyeva Z. A. O'zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati // "Ilmiy impuls" xalqaro ilmiy jurnali, №9 (100), 2023.
3. Yuldosheva E. A. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, uning adabiyot sohasida tutgan o'rni // Ilmiy maqola, O'zDJTU, 2023.
4. Arboblari portali: Faynberg Aleksandr Arkadevich —
<https://arboblari.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich>

5. Ziyouz portali: Aleksandr Faynberg she'rlari – <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
6. Yuz.uz portali: Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga – <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>